


## V. XIZMATLAR

Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati juda ulkan va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste’mol mollari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagи xizmatlarsiz amalga oshmaydi.


2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, 37260 ta faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 21 938 ta korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

**2022- yil 1- aprel holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar  
sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan  
korxona va tashkilotlarning ulushi, %  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)**



Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiy sonining 17046 ta korxona va tashkilotlar kichik biznes sub’ektlarini tashkil etadi. 2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, ularning ulushi 77,7 %ni tashkil etdi.

**2022- yil 1- aprel holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,  
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (47,8 %) yuqori.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o‘sishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ularning ulushi 8,2 %ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko‘rsatuvchi faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,6 %ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,1 %ni tashkil etdi.

**2022- yil 1- aprel holatiga xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha tarkibi, %**


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3353,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,5 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (30,7 %), moliyaviy xizmatlariga (19,5 %), transport xizmatlariga (19,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (4,9 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

**2022- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan  
bozor xizmatlari tarkibi, %**



2022- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o‘tgan yilga nisbatan 566,1 mlrd. so‘mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2022- yil yanvar-fevral oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 1178,3 mlrd. so‘mga ko‘paydi.

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘sishiga savdo xizmatlari (349,8 mlrd. so‘mga), transport xizmatlari (220,1 mlrd. so‘mga), moliyaviy xizmatlar (253,6 mlrd. so‘mga), hamda aloqa va axborot sohasidagi xizmatlar (57,4 mlrd. so‘mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

**Ma’lumot uchun:** 2021- yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar – 171,1 mlrd. so‘mga, savdo xizmatlari – 152,7 mlrd. so‘mga, transport xizmatlari 102,2 mlrd. so‘mga va aloqa va axborot sohasidagi xizmatlar – 26,7 mlrd. so‘mga oshgan.

**2022- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari**

	<i>Hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>O‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati, %</i>
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>3 353,7</b>	<b>112,5</b>
<i>shu jumladan:</i>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	165,0	118,6
moliyaviy xizmatlar	653,1	135,2
transport xizmatlari	637,9	112,8
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	608,0	110,8
yashash va ovqatlanish xizmatlari	97,8	105,3
savdo xizmatlari	1030,7	106,0
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	80,7	108,8
ta’lim sohasidagi xizmatlar	150,4	107,1
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	44,8	103,9
ijara xizmatlari	80,2	82,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar	112,5	104,2
shaxsiy xizmatlar	112,5	106,0
me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	35,1	100,1
boshqa xizmatlar	153,0	114,9

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy sohasidagi xizmatlarida 135,2 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 118,6 % boshqa xizmatlarda 114,9 %, transport xizmatlarida 112,8 % qayd etildi.

Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ijara xizmatlari 82,4 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar 100,1 % sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari 103,9 % da kuzatildi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2022- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 30,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni moliyaviy xizmatlari 19,5 %, transport xizmatlar 19,0 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 4,9 % egallaydi.

2022- yil yanvar-mart oylarida savdo xizmatlari hajmi 1030,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 30,7 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 152,7 mlrd. so'mga oshdi.

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

#### Savdo xizmatlari tarkibi ulushi, % da



Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.


2022- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 84,3 % ni tashkil etdi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 10,7 % ga yetdi.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,9 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobjiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

### **2022- yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %**




2022- yil yanvar-mart oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 165,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi davrga nisbatan o'sishi 57,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,4 % ni tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,3 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,7 % ga to'g'ri keladi.


## **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %**



Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2022- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 653,1 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 135,2 % ni tashkil etdi.

### **2022- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %**



Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (87,4 %) tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalarini, kompyuter

texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2022- yil yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 150,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilga nisbatan o'sish 107,1 % ni tashkil etdi.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 97,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,9 % ga yetdi.


**2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo'yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	<i>Hajmi, mlrd. so'm</i>	<i>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</i>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3353,7</b>	<b>112,5</b>
Qarshi sh.	1137,0	118,2
Shahrisabz sh.	184,2	117,5
G'uzor	145,3	111,7
Dehqonobod	100,1	100,6
Qamashi	133,6	104,6
Qarshi	156,9	105,1
Koson	206,7	112,1
Kitob	202,0	108,7
Mirishkor	78,8	104,1
Muborak	185,3	103,2
Nishon	124,2	107,1
Kasbi	102,3	101,7
Chiroqchi	200,7	111,6
Shahrisabz	229,8	117,4
Yakkabog'	166,8	110,9

Hududlar o‘rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (1137,0 mlrd. so‘m), Shahrisabz (229,8 mlrd. so‘m), Koson (206,7 mlrd. so‘m), Kitob (202,0 mlrd. so‘m) va tumanlariga Chiroqchi (200,7 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keladi.

Eng kam hajm Mirishkor (78,8 mlrd. so‘m), Dehqonobod (100,1 mlrd. so‘m) Kasbi (102,3 mlrd. so‘m) va tumanlarida kuzatilmogda.


### **2022- yil yanvar-mart oylarida hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sish sur’ati, %**



Yuqori o‘sish sur’atlari Qarshi sh – 118,2 %, Shahrisabz shahrida – 117,5 %, Shahrisabz tumani – 117,4 % va Koson tumani – 112,1 % kuzatildi.

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarini hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyatida tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

**2022- yil yanvar-mart oylarida ko‘rsatilgan bozor  
xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, %**



Hududlar o‘rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (33,9 %), Shahrisabz (6,9 %), Koson (6,2 %) va Kitob (6,0 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o‘rtasida eng kam ulush Mirishkor (2,3 %), Dehqonobod (2,9 %) va Kasbi (3,1 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sishi kuzatilmoqda. 2021- yil yanvar-mart oylariga nisbatan hajm 147,7 ming so‘mga oshib, 981,8 ming so‘mga teng bo‘ldi.

Tumanlar orasida bu ko‘rsatkich Qarshi shahrida 870,9 ming so‘mdan, Chiroqchi tumanida 62,7 ming so‘mgacha oralig‘ida farq qildi.

Aholi jon boshiga ko‘rsatilgan xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur’atlari Qarshi shahrida (119,6 %), Shahrisabz shahrida (116,6 %) va Shahrisabz tumanida (115,0 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo‘lmagan o‘sish sur’atlari Dehqonobod (99,4 %), Mirishkor (100,0 %) Kasbi (101,0 %) va Muborak (101,9 %) tumanlarida qayd etildi.